OKSYUMORONLI VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ASSOTSIATSIYASI SHAVKAT RAHMON SHE'RLARI MISOLIDA

Robiya Vaxobjonova

Namangan tumani 2- kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oksyumoronli va frazeologik birliklarning assotsiatsiyasi Shavkat Rahmon she'rlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oksyumoron, frazeologiya, Shavkat Rahmon, metafora, ibora, nutq.

Kirish: Oksimoron yununcha " o'tkir ma'noli be'manilik" so'zidan olingan bo'lib, u antitezaning bir ko'rinishi hisoblanadi va bir-biriga tamoman zid bo'lgan so'zlar birlashtirilib, yangi bir ma'no keltirib chiqariladi: *Mana, o'rmon hidi- bundan yoqimli narsa bormi. Bu yerda o'lim ham baxt. Biroq fristning gardanida haqimiz benihoya ko'p.* (Oybek "Quyosh qoraymas"). XIX asr boshlarida oksimoron hali mustaqil poetik hodisa sifatida ajratilmagan, ammo u metaforalarning bir ko'rinishi sifatida qaralib bir necha maqolalar e'lon qilingan. 1821-yilda N.Ostolopov tomonidan tuzilgan "Antik va yangi she'riyat lug'ati" da bu hodisaga ta'rif berilgan. Oksyumoron- bu o'zining nomuvofiqligi tufayli badiiy asarda mavjud bo'lishga haqli bo'lmagan bir butundagi g'oyalarning noto'g'ri, adolatsiz kombinatsiyasi.

Iboralar- tashqi olamdagi voqea-hodisalarni ramzlar, obrazlar vositasida tasvirlash orqali, uni o'quvchiga oson, tushunarli, aniq tasavvur etishga yordam beruvchi vositadir. Frazeologizmlar hayotdagi yaxshi va yomon hodisalarni baholash, xulosa chiqarish natijasida insonlar tomonidan o'ylab topilgan ifodalardir. Ijodkorlar esa bu iboralardan unumli foydalangan holda o'z asar qahramonlari nutqida qo'llaydilar. Natijada shu orqali asar ta'sirchanligi, badiiyligi, tushunarliligi ortadi, kitobxonda qiziqish uyg'onadi hamda asarni osongina tushunib oladi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning qayta ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan. Yosh tadqiqotchi Y.Odilov o'zbek tilidagi enantiosemik so'zlarga bag'ishlangan tadqiqotida o'z e'tiborini frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga qaratib, quyidagi fikrlarni bayon qiladi:" Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarni benihoya betakror timsolidir. Shu ma'noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir."

Asosiy qism: Oksyumoron badiiy adabiyotdagi eng original qurilmalardan biridir. L.A.Vvedenskaya o'zining ilmiy maqolasida antonimlar oksimoronlar uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Unga ko'ra berilgan oksimoron ta'rifi quyidagicha: " Oksyumoron- bu mantiq nuqtai nazaridan bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar birikmasidir. Shunday qilib badiiy adabiyotda asar nomlarini uchratishimiz ham mumkin. Masalan: Gogolning "Cheksiz o'lik", A.Azimovning "Abadiyatning oxiri",Y.Bondarevning "Issiq qor" va boshqalar. Sodda qilib aytganda, oksimoron muvozanat, ya'ni me'yorni ochiq-oydin buzilishi bo'lsa-da, badiiy ahamiyati yuqori, kitobxon diqqatini jalb qiluvchi hodisadir. Masalan: aqlli ahmoq, shirin azob, issiq qor, chiroyli ilon, shirin o'lim kabi misollar oksimoronga misol bo'la oladi.

Oksimoronlar ayrim adabiyotlarda "okkazional birikmalar", "noodatiy birikmalar" yoki "g'ayriodatiy birikmalar" deb ham yuritiladi. Bilamizki, har qanday so'z ham birlashib oksyumoronni hosil qilavermaydi. Aniq talabi shuki, bir-biriga mos kelmaydigan so'z birikma yoki gap birlashmog'i lozim. Shu o'rinda oksyumoronlarni tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'lishni joiz deb topdik.

1. **So'z birikma shaklidagi oksyumoronlar**. (shirin tashvish, go'zal o'lim, sokin isyon, tirik murda)

2. **Gap shaklidagi oksyumoronlar**. (Baxtiyor bo‘lardim bir kuni o‘lsam, Lazzat bor har qanday og’riqda**,** Mening har qadamim o‘limga qarshi).

Tahlil qilishdan avval biz o‘z oldimizaga uchta vazifa qo‘ydik:

1) she’rlar tarkibidagi oksimoronlarni topib, belgilab olish;
2) ularning qanday ma’noda qo‘llanganligini, qanday vazifa bajarayotganligini aniqlash;
3) oksyumoronlarning assotsiativ jihatdan tahlil qilish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda she’rlardagi oksimoronlarning assotsiativ tahliliga to‘xtalamiz.

3. Eng baxtiyor lahzalarda ham
uning **sokin isyoni** so‘nmas.
tug’ilmagan shunchaki aslo,
u hech qachon shunchaki o‘lmas.

Sokin so‘zi –*tinch, sekin, osoyishta* so‘zlarining sinonimi bo‘lib, badiiy uslubga xos; isyon so‘zi-*norozilik, g’alayon, janjal* so‘zlarining sinonimi bo‘lib, badiiy uslubga xos leksema.

Ayni she’rda sokin va isyon bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar qo‘llanib, shoir o‘zining ichki olamidagi, boshqalarga ko‘rinmaydigan, sezilmaydigan tug’yonlarni ifodalash uchun qo‘llagan. Sokin isyon-sekinlik, tinchlik, bosiqlik bilan o‘tkazilgan g’alayon assotsiatsiyasini hosil qiladi. Sokin isyon – sifat + ot shaklidagi shaklidagi oksyumorondir.

1. Baxtiyor bo‘lardim bir kuni o‘lsam
Yurakni changallab, yiqilib.

(Sh.Rahmon. “Rangin lahzalar” to‘lami, B-20)

Baxtiyor bo‘ladimi o‘layotgan kishi degan savol tug’iladi. Shoir bu o‘rinda bu shunday zamonda, davrda qabohatni ko‘ra turib yashagandan o‘lganim afzal demoqda.

Baxtiyor bo‘lmoq- xursandlik, mamnunlik; o‘lmoq- vafot etmoq, bu dunyodan ketmoq assotsiatsiyalarini yodimizga soladi. Yuqoridagi oksyumoron istak gap shaklida bo‘lib, baxtiyor bo‘lmoq- kesim, bir kun o‘lsam – hol kabi bo‘laklardan tarkib topgan. Ikki predikatli gapdir.

2. Lazzat bor har qanday og’riqda,
Kechalar og’riqdan ingrab yotaman
Va o‘sha og’riqni beg’am, bo‘g’riqqan
Og’riqsiz yuzlarga otaman…

(Sh.Rahmon. “Rangin lahzalar” to‘plami)

Lazzat- rohat, rohatlanish, ruhlanish, nash’a; *og’riq*- azob chekish, qiynalish assotsiatsiyalarini hosil qilib, she’rda ma’naviy og’riq nazarda tutilmoqda, ya’ni qaramlik, bo‘ysunuvchanlik og’rig’i. Ushbu oksyumoron gap shaklidagi oksimoron bo‘lib, *lazzat-ega, bor-kesim, har qanday-aniqlovchi, og’riqda-to‘ldiruvchi* bo‘laklaridan tarkib topgan bir predikatli oksyumorondir. Ushbu she’rni o‘qigan paytda ,asosan, individual assotsiatsiyalar hosil bo‘ladi. Chunki og’riq leksemasi har bir insonni turli joylaridagi og’riqni yodga soladi. Masalan; boshi og’riydigan inson eshitganda, bosh og’rig’i, tishi og’riydigan odam esa tish og’rig’ini yodiga keltiradi.

3. Qiynang, o‘z holiga qo‘ymang yurakni
Yashamaslik uchun yuraksiz…

Yashamaslik-o‘lish, vafot etish, dunyoni tark etish; *yuraksiz*- o‘lish, yuraksiz inson yo‘q singari assotsiatsiyalarini hosil qiladi. Bu o‘rinda shoir dunyoga keldiningmi loqayd, beparvolarcha,

qo‘rqoqlarcha yashamaslik uchun yuragingni o‘z holiga qo‘yma demoqda. Yuqoridagi oksyumoron gap shaklida bo‘lib, yuraksiz –aniqlovchi, yashamaslik uchun-to‘ldiruvchi ko‘rinishidadir. Yuqoridagi satr bilan birgalikda uch predikatga ega.

4. Qayerga bo‘lsa ham yurganim yaxshi…

Mening har qadamim muqaddas,
Mening har qadamim
O‘limga qarshi.

Qadam- odim, yurish, vaqt, zamon, o‘tgan umr, qaytarib bo‘lmas, *o‘limga qarshi*- o‘lmaslik uchun harakat, o‘lim bilan olishmoq, barhayotlik, abadiylik assotsiatsiyalarini hosil qiladi. Insonni har bosgan qadami o‘tgan umridir, uni aslo qaytarib bo‘lmas, ammo ushbu oksyumoronni asl ma’noda, ya’ni o‘lim tomon qadam deb tushinish mumkin. Ushbu oksyumoron gap shaklida bo‘lib, mening-aniqlovchi, har qadamim-ega, o‘limga-to‘ldiruvchi, qarshi-kesim bo‘laklaridan tshkil topgan, bir predikatli oksimoron.

5. Men har kecha **yumayapman ko‘z,**

Tug‘ilyapman har sahar qayta.

Ko‘z yumayapman-o‘lmoq, vafot etmoq; *qayta tug’ilyapman*- hayotga qaytmoq, yana yashamoq,yangi hayot boshlamoq assotsiativ birliklarini hosil qiladi. Bu o‘rinda mubolag’a san’atidan ham foydalanilgan bo‘lib, ma’noni kuchaytirish hamda o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish uchu qo‘llanilgan. Gap shaklidagi oksyumoron bo‘lib, ko‘z yumayapman-kesim, tug’ilyapman- kesim, har sahar- hol, qayta-hol bo‘laklaridan tarkib topgan ikki predikatli oksyumoronli gapdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda Shavkat Rahmon she’rlari tarkibida qo‘llangan iboralarning assotsiativ tahliliga to‘xtalamiz. Tahlil jayonida ularni 4 jihatdan tahlil qilamiz:

1. Frazeologik lug’atdagi ma’nosini aniqlash.
2. Assotsiativ jihatdan tahlil qilish.
3. Struktur jihatdan tahlil qilish.
4. Ma’noviy jihatdan tahlil qilish.

Men **suyangan tog’lar** shundoq qolurmi,
Shundoq qolarmikin yuraklarda dog’?

Suyangan tog’lar- 1) suyanchig’i, g’amxo‘ri; 2) orqa qiladigani, e’tiqod-ishonch bilan qaraydigani. *Suyangan*-suyanmoq, tayanmoq, bog’lanmoq, ota-ona, ishonchli; *tog’lar*- baland, qo‘rqinch, yiqilmoq, qo‘rqmoq, qor, sovuq, salqin assotsiativ birliklarini hosil qilgan. Bu ibora so‘z birikma shaklida bo‘lib, bir predikatli gap tarkibida qo‘llanilgan. Ishonchli, qadrdon insonlar nazarda tutilmoqda.

1. **Burchimizni oqlab** tobora

Yaqinlashib boryapmiz Kunga…

Burchini oqlamoq- o‘z zimmasidagi ishni to‘liq bajarmoq, ishonchni qozonmoq. *Burch*- vazifa, topshiriq, lavozim, davlat ishchisi, mas’uliyatli; *oqlamoq*- bajarmoq, sodiq, vatanparvar, mas’uliyatli, medal, faxriy yorliq assotsiatsiyalarini hosil qiladi. Bir predikati gap tarkibida qo‘llangan. Vazifasini a’lo darajada bajargan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

2. Ming yilni **yelkamda ko‘tardim**,endi

Malol kelayotir soniyalar ham…

Yelkada ko‘tarmoq- aytganini o‘z o‘rnida bajo keltirmoq, hurmat qilmoq. *Yelkada ko‘tardim*- yelka, og’ir, hurmat, samimiy, qo‘rqoq assotsiativ birliklarini hosil qiladi. Gap shaklidagi ibora.

3. Zarbalar yog’ilar boshingga,

Qalbingga mixlanar zarbalar.

Tish qayrab yuradi doshingga
Sharpalar, sharpalar, sharpalar…
Tish qayramoq- g’azablanmoq, qasosini olish uchun payt poylamoq. *Tish qayrab*- tishini g’ichirlatmoq, tish, oq, jahli chiqmoq, musht, g’azab. Gap shaklidagi ibora bo‘lib, *bir predikatli* gap.

4. Tag’in haq so‘zini aytolmay hayron-
bosh ko‘tarmay yotdi faqat xoinlar.
Bosh ko‘tarmaslik- uyat ish qilmoq, sharmanda bo‘lmoq. *Bosh ko‘tarmay*- bosh, soch, egilmoq, uyat, nomussizlik, sharmanda bo‘lish, gap-so‘z assotsiatsiyalarini hosil qiladi. Ushbu ibora *bir predikatli* gap tarkibida qo‘llanilgan. Xoinlar, Vatanga xiyonat qilganlar qilgan ishlaridan uyatda qoldi.

5. Barcha shoir jam bo‘pti,
davra hang-u mang bo‘pti,
yuzta po‘rim shoirning
og’ir **boshi ham bo‘pti**.
Boshi ham bo‘lmoq-1) bosh egmoq, itoatkor bo‘lmoq. Sinonimi: bo‘yin egmoq. *Boshi ham bo‘lmoq*- bosh, bo‘yin, egilgan, afsuslanmoq, uyat, mish-mish. Ibora *bir predikatli* gap. Ayni shu ibora kesim vazifasini bajargan. She’rda shoirlar uyatdan boshlari egilib qolishi, uyalishi nazarda tutilmoqda.

6. Dadam o‘ldi, go‘yo cho‘kdi tog’,
Shamol yo‘li ochilib ketdi.
Quchoqladik bir-birimizni,
O‘tkir sovuq **suyakka yetdi.**
Suyakka yetmoq- ortiq chidab bo‘lmaydi. *Suyakka yetdi*- suyak, qattiq, inson tanasi, it suyak g’ajiydi. Jarohat kabi assotsiatsiyalar hosil bo‘ladi. *Bir predikatli* gap bo‘lib, kesim vazifasini bajargan.

7. Go‘yoki bir **sirning tagiga yetgan**,
Bitta u jafokash, boshqalar aybdor.
Sirning tagiga yetmoq- mohiyatini, sababini oxrigacha aniqlab, anglab olmoq. *Sirning tagiga yetgan*- fosh qilmoq, quvonch, izquvar, g’iybatchi, gap tarqatuvchi assotsiatsiyalarini paydo qiladi. *Bir predikatli* gap.

8. **Yuragi yorilib** o‘lsin deb sho‘rlik,
bulbul haqida ko‘p ig’vo to‘qilgan.
Yuragi yorilmoq- sabri-chidami tugab, xunob bo‘lib ketgan. *Yuragi yorilmoq*- qo‘rqmoq, yurak, qizil, yorilmoq, vahimaga tushmoq assotsiatsiyalarini hosil qiladi. Bu ibora so‘z birikma shaklida bo‘lib, *bir predikatli* gap tarkibida kelgan. Ushbu she’rda ibora qo‘rqsin, vahimaga tushsin degan ma’noda qo‘llanilgan.

10 . O‘limni **nazarga ilmaysan**,
sezmaysan surgun-u qamoqni.
Nazarga ilmaydi-1)mensimaydi, pisand qilmaydi,2) arzigulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaydi. *Nazarga ilmaysan*- behurmatlik, mensimaslik, burni ko‘tarilgan, hurmat qilmaslik assotsiatsiyalarini hosil qilgan. Gap shaklidagi ibora bo‘lib, *bir predikatli* gap vazifasini bajarmoqda. She’rda o‘limni nazarga ilmaysan deya istagan gunoh ishlarni qilaverasan, Allohning chegaralarini bilmasdan ish tutasan deyilmoqda.

Xulosalar. O‘zbek tilshunosligida nisbatan kam o‘rganilgan oksyumoron badiiy asar xoh u nasr bo‘lsin, xoh nazm uning ta’sirchanligini, kitobxonga tushunarlilik darajasini oshiradi. Oksyumoronlarning, o‘z navbatida, so‘z birikma shaklidagi hamda gap shaklidagi ko‘rinishlari mavjud. (keyingi ishlarimizda butun bir matn ham oksyumoron bo‘lishi mumkinligi haqida izlanishlar olib boramiz). Frazemalar badiiy asar obrazliligini, ifodaliligni, ta’sirchanligini oshiradi.

Bu esa o‘quvchining asarni oson anglash qobiliyatini shakllantiradi. Yuqoridagi tahlillar orqali ijodkor badiiy matnlaridagi oksyumoron va frazemalarni qo‘llash mahoratini, ularning asarda tarkibidagi ahamiyatini biroz bo‘lsa-da ochib berdik. Bu tahlillar jarayonida biz she’rlarni assotsiativ, struktural tahlil qildik. Qolaversa, izohli hamda frazeologik lug’atdan foydalangan holda ma’noviy jihatdan tahlillarga ham to‘xtaldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Abdurahmonov,N.Mahmudov.So‘z estetikasi .– Toshkent:Fan,1981. – B-38,47.
2. T.Bushuy,Sh.Safarov,Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi, – Toshkent:2007.
3. I.Darvishov. Lingvokulturologiya fanidan ma’ruzalar matni, – NNamangan,2021.
4. D.Lutfullayeva. Assotsiotiv tilshunoslik nazariyasi. Toshkent – 2017: B-10.
5. D.Lutfullayeva. Assotsiotiv tilshunoslik nazariyasi. Toshkent – 2017: B-10.
6. J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent – 1995.
7. A.Nurmonov,N.Mahmudov.O‘zbek tilining nazariy grammatikasi, – Toshkent,2007.
8. A. Nurmonov. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari, – Toshkent: 2010.
9. A.Nurmonov. N.Mahmudov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi(o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabalari uchun o’quv qo’llanma), - Toshkent: 2007.

